

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

O‘ZBEK, RUS TILLARI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

**O‘zbek tili fani o‘qituvchisi
Bozorova Gulruh Ravub qizining
“Sog‘lom turmush tarzi”. Grammatika: Matn va uning turlari”
mavzusidagi**

OCHIQ DARS ISHLANMASI

Fakultet: Iqtisodiyot

Yo‘nalish: Buxgalteriya hisobi va audit

Fan: O‘zbek tili

Guruh: 107



Samarqand – 2025

Tuzuvchi: Bozorova G.R. – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti O‘zbek, rus tillari va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

Taqrizchilar: **Hotamova G. – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.**

Shaymanova Y. – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti O‘zbek, rus tillari va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi.



**MAVZU: “SOG‘LOM TURMUSH TARZI”.
GRAMMATIKA: MATN VA UNING TURLARI”**

O‘quv mashg‘ulotida ta’lim texnologiyasi modeli

Vaqt: 80 daq.	Talabalar soni:
O‘quv mashg‘ulotining turi va shakli	Amaliy-yangi bilimlarni egallash va mustahkamlash bo‘yicha o‘quv mashg‘uloti
O‘quv mashg‘ulotining rejasi	1. Matn haqida umumiy tushuncha. 2. Matnning hajmiga ko‘ra turlari. 3. Matnning uslubiy xususiyatiga ko‘ra turlari. 4. Matnning maqsadiga ko‘ra turlari.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: talablarda adabiy nutq uslublari, ilmiy uslub va uning xususiyatlari haqidagi bilimlarni shakllantirish, olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish.	
Pedagogik vazifalar	O‘quv faoliyati natijalari
– matn va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotlar berish; – ilmiy, ommabop, badiiy, rasmiy matnlar haqida tushunchalar berish.	– matn va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishadi; – ilmiy, ommabop, badiiy, rasmiy matnlarni tuzish bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantiradi.
O‘qitish usullari	ko‘rsatma berish, taqdimot, manbalar bilan ishlash, didaktik o‘yinlar, mashqlar ustida ishlash, “Sirli so‘z”, “Noto‘g‘ri jadval”, “Uslubni toping”, “O‘zing tanla” usullari
O‘quv faoliyatini tashkil etish shakli	Ommaviy, yakka tartibli
O‘qitish vositalari	O‘quv-uslubiy majmua, darslik, tarqatma materiallar, yozuv taxtasi, kompyuter, proyektor
O‘qitish shart sharoitlari	Guruh bilan ishlashga qulay bo‘lgan jihozlangan xona
Qaytar aloqaning usul va	Taqdimot, og‘zaki so‘rov, tezkor savol-

vositalari	javob, misol va mashqlar, test
-------------------	--------------------------------

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (15 daqiqa)	Tashkiliy qism. Salomlashish, davomatni aniqlash. 1.1. Tayanch bilimlarni faollashtiruvchi aqliy hujum va "Sirli so'z" usuli bilan dars boshlaydi ("Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asaridan matn). 1.2. Yangi mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni va adabiyotlar ro'yxatini aytadi. O'quv mashg'uloti davomida o'quv ishlarni baholash mezonlarini tanishtiradi. Uyga vazifani so'rash: 1.3. Talabalar bilimini o'tilgan mavzu bo'yicha tekshirish uchun mashqlar ustida ishlanadi.	Javob beradilar Tinglaydilar va javob beradilar Tinglaydilar va yozib oladilar Aniqlashtiradilar va savol beradilar Baholash mezonlari bilan tanishadilar Javob beradilar, bajaradilar
2-bosqich. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	Yangi mavzuni o'tish. 2.1. Mavzu bo'yicha o'quvchilar bilimini faollashtirish uchun suhbat o'tkazadi. 2.2. Yangi mavzu mazmunini ochib beradi, mohiyatni ochib beradigan slaydlarni ko'rsatadi va tushuntiradi. 2.3. Mavzuning har bir rejasi bo'yicha asosiy tushuncha va jihatlariga e'tibor qaratadi. Mavzuni mustahkamlash. 2.4. O'qituvchi talabalarga o'quv topshiriqlarini beradi, yo'riqnomalari bilan tanishtiradi, talabalar ishini kuzatadi, javoblarini tinglaydi.	Savollarga javob beradilar, sharhlaydilar Yozadilar, mavzuni tinglaydilar Mustaqil ishlaydilar, topshiriqni bajaradilar, test savollarini bajaradilar

3-bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	Dars yakuni 3.1. Mavzuni umumlashtiradi, umumiy xulosalar qiladi, yakun yasaydi, savollarga javob beradi. 3.2. Uyga vazifa berish. “O‘zing tanla” usuli orqali topshiriqlar beradi.	Tushunib oladilar, baholar bilan tanishadilar, topshiriqlarni yozib oladilar
---	--	--

Darsning maqsadi:

Ta’limiy:

- talabalar matn va uning ko‘rinishlari haqidagi bilimlarini umumlashtirish va boyitish;
- matn va uning ko‘rinishlari haqida ma’lumot berish;
- matn va uning ko‘rinishlari haqida ko‘nikmalarini shakllantirish;

Rivojlantiruvchi:

- talabalar so‘z boyligini oshirish; og‘zaki va vozma nutqini o‘stirish, sohaga oid bilimlarini mustahkamlash va boyitish.

Tarbiyaviy:

- talabalarni ona tiliga, ajdodlar merosiga hurmat, vatanparvarlik, kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash, yuksak axloqiy va ma’naviy sifatlarining shakllanishiga e’tibor qaratish, kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N. Ish yuritish. – Toshkent, 2020.
- 2.Sadinova N. Ish yuritish terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent, 2019.
- 3.Abdurahmonova M., Fattaxova D., Xalmuxammedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O‘zbek tili. (o‘quv qo‘llanma) – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018.
- 4.Bozorova G. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. (O‘quv qo‘llanma) – Jizzax, 2025.

Fanlararo bog‘lanish

- ☐ Huquqshunoslik
- ☐ Tilshunoslik
- ☐ Psixologiya
- ☐ Falsafa
- ☐ Tarix
- ☐ Matematika
- ☐ Informatika
- ☐ Fizika
- ☐ Biologiya
- ☐ Iqtisodiyot



DARS SHIORI
Bilim – bu kuch!
Knowledge is power!



UYGA VAZIFANI TEKSHIRISH UCHUN TOPSHIRIQLAR



1-topshiriq. Berilgan gaplarni ko‘chirma gaplarga aylantiring.

1. Mevasi achchiq daraxtni asal bilan sug‘orsang ham shirin meva bermaydi. 2. O‘z o‘rnida aytilmagan so‘z hech kim yo‘q yerda chalingan kuyga o‘xshaydi. 3. Nodonning vaqti foydasiz o‘tadi. 4. Dangasa odamning boyligida baraka bo‘lmaydi. 5. Qorinni ovqat to‘ydiradi, aqlni esa hikmat.

2-topshiriq. Nuqtalar o‘rnida mos ko‘chirma gaplar tuzing.

1. Auditoriya eshigini ochgan o‘qituvchi talabalarga: “.....!” – dedi-yu, chiqib ketdi.
2. Ona yig‘idan ko‘zlari qizargan qizidan: “.....?”, – deb so‘radi.
3. “.....”, – deydi dono xalqimiz.
4. Alisher Navoiy: “.....”, – deb yozgan.

YANGI MAVZU BAYONI



“SOG‘LOM TURMUSH TARZI”.

GRAMMATIKA: MATN VA UNING TURLARI.

“SIRLI SO‘Z” usuli

Quyidagi matnni o‘qing. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring va fikringizni asoslang. Siz nima deysiz?

Bir mashhur tabibdan so‘rabdilar:

– Dunyoda eng og‘ir xastalik nedur?

Tabib aytibdur:

– Xastalikning yaxshi-yomoni

bo‘lmaydi, ammo eng dahshatlisidir.



Topshiriq. Matn bilan tanishing.

SOG‘LOM TURMUSH TARZI

Inson salomatligini asrash va mustahkamlash, qolaversa, uzoq umr ko‘rishning garovi sog‘lom turmush tarzi ekanligi bugun barchaga ayon haqiqat. Zero, har birimiz, eng avvalo, o‘z sog‘lig‘imizni o‘ylashimiz darkor. Ana shunda xotirjam va farovon hayot kechirgan, ko‘plab asoratli xastaliklarning oldini olgan bo‘lamiz.

“Olimlarning fikricha, sog‘lom turmush tarzi olti asosiy shartga amal qilishga asoslanar ekan, — dedi N.Sagdullayeva. — Ulardan birinchisi, to‘g‘ri ovqatlanish bo‘lib, kundalik iste’mol qilinadigan oziq-ovqatlarni organizmning fiziologik, biologik talablari asosida tanlash va iste’mol qilishdir”.

To‘g‘ri ovqatlanish shunday tashkil etilishi kerakki, u o‘zining fizik, kimyoviy hamda biologik xususiyatlari bilan inson tanasiga og‘irlik qilmasin, aksincha, tez va oson hazm bo‘lib, organizmni kerakli ozuqaviy moddalar bilan ta‘minlasin.



Matn yuzasidan savollar.

1. Sog‘lom turmush tarzi deganda nimani tushunasiz?
2. Asoratli xastaliklar qanday kelib chiqadi?
3. To‘g‘ri ovqatlanishga rioya qilasizmi?




NAZARIY MA’LUMOT

Tayanch so‘z va iboralar. Matn va uning xususiyatlari. Matn unsurlari. Sarlavha, xatboshi, epigraf, iqtibos. Matn turlari. Mikromatn va makromatn. Ilmiy, badiiy, rasmiy va publitsistik matn turlari. Matnning maqsadiga ko‘ra turlari: tavsifiy matn, hikoya matni, muhokama matn.

Yozilgan, ko‘chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi **matn** deyiladi. Matnning eng kichik birligi gap hisoblanib, ular matn tarkibida ma’lum bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘lanadi.

Ular quyidagilardan iborat: bog‘lovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi ayrim so‘zlar, takroriy bo‘laklar, olmoshlar, sinonimlar. *Karimjon a’lo o‘qish va odobi bilan litseyda katta hurmatga ega. U jamoat ishlarida ham faol qatnashadi.* Matn tarkibidagi ikkinchi gap boshida kelgan *u* olmoshi birinchi gap tarkibida kelgan *Karimjon* o‘rnida kelib, ikkinchi gapni birinchi gapga mazmunan bog‘lab keladi.



Sarlavha, epigrafi, xatboshi, iqtibos kabilar matn unsurlaridir. Odatda, matndagi yaxlit mavzu, mazmun, asosiy g'oya, muallifning maqsadiga muvofiq uning nomi – **sarlavhasi** bo'ladi.

Matnning mazmuniga mos keluvchi mashhur hikmatli so'z, maqol, ibora yoki badiiy parcha **epigrafi** deyiladi. Epigrafi, odatda, sarlavhadan keyin, asosiy matndan oldin, sahifaning o'ng chekkasida yoziladi. Epigrafi bo'lgan matndan so'ng (so'roq yoki undov gap bo'lmasa) nuqta qo'yiladi, muallifi qavs ichida yoziladi.

Xatboshi – bir mazmuniy butunlik, “matnning bir xat boshidan keyingi xat boshigacha bo'lgan qismi”.

Bir matndan boshqasiga kiritilgan parcha **iqtibos** deb yuritiladi. Bunday parchalar ifodalanayotgan fikrni dalillash, isbotlash, boshqa fikrni ma'qullash yoki rad qilish, tahlil va tanqid qilish, unga munosabat bildirish kabi turli maqsadlar bilan matnga kiritiladi. Iqtiboslar har qanday nutq uslublarida ham kuzatilsa-da, ayniqsa, ilmiy matnda alohida o'ringa ega. Ilmiy matnda esa iqtiboslarning qayerdan olinganligi, kimga tegishliligi, manbasi aniq ko'rsatilishi shart. Aks holda, bu holat qonunan plagiat, ya'ni o'g'irlik hisoblanadi. Ayni paytda ilmiy odob qoidalariga ham mutlaqo ziddir.

Matn ma'lum maqsad yoki fikrni sodda, qo'shma va murakkab gaplar orqali ifodalovchi til birligidir. Matn nasr yoki nazm shaklida bo'lishi mumkin.

Bir necha gaplarning o'zaro grammatik va mazmuniy bog'lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikka ega bo'lgan qo'shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og'zaki nutq parchasi mikromatn hisoblanadi. Bir umumiy mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topuvchi yaxlit asarga makromatn deyiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida ishtirok etgan barcha mikromatnlar "o'g'irlik" umumiy mavzusi ostida birlashgan.

Matn nutq uslublarining turli sohalarini qamrab oladi. Matn uslubning badiiy, ilmiy, ommabop, rasmiy turlarini tashkil etishi mumkin.

Matn turli maqsadlar bilan tuziladi. Masalan: muayyan predmet yoki voqea-hodisalar haqida xabar berish, hikoya qilish, ularning ta'rif-tavsifini berish, ya'ni tasvirlash, ularni muhokama qilish, ya'ni mulohaza yuritish. Ana shunga ko'ra, matnlarning quyidagi turlari farqlanadi:

1. Hikoya matni.

2. Tasviriy matn.

3. Muhokama matni.

Muayyan predmet yoki voqeahodisalar ta'riflangan, tavsiflangan matn tasviriy matn hisoblanadi.

Tasviriy matn badiiy adabiyotda ko'proq qo'llanadi.

Hikoya matnida muayyan predmet yoki voqea-hodisalar haqida xabar beriladi, hikoya qilinadi.

Muayyan predmet yoki voqeahodisalar haqidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan matn muhokama matni hisoblanadi.

Muhokama matni darsliklar va ilmiy kitoblarda ko'proq qo'llanadi.



Mavzuni mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. *Quyidagi barqaror birikmalarni sarlavha sifatida qo'llab, mikromatn yarating.*

Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga (matal).

Qo'shning tinch - sen tinch (maqol).

2-topshiriq. Matnni o'qing, uning unsurlarini ayting. Matn turini aniqlang.

Matn yaratish matn ustida ishlashning eng mas'uliyatli davridir. Matnning turli uslubiy turlari (adabiy, ommabop, rasmiy, ilmiy, betaraf) o'zining leksik, grammatik xususiyatlariga ega. So'z, atama, sheva, jargon, chet til so'zlari, badiiy til vositalari, grammatik shakllar va sintaktik qurilmalar matn uslubining biror yoki bir-biriga yaqin turlarigagina xosdir. Yaratiladigan matnlar sodda tarkibli yoki murakkab tarkibli bo'lishi mumkin. Sodda tarkibli yozma matnlar o'tilgan dars mavzulari bo'yicha bo'lib, talabalar mustaqil ravishda qisqa mavzuli misollar yoki matnlar tuzadilar.

Murakkab tarkibli yozma matnlar yozma ishning turli sohalariga oid bo'ladi: insho, bayon, intervyu, reportaj, maqola, xabar, annotatsiya, konspekt, rasmiy ish qog'ozlari, taqriz. Insho matnning turli uslubiy turlarini (bayon, badiiy, ilmiy) o'z ichiga oladi.

3-topshiriq. Quyidagi rasm asosida matn tuzing.



4-topshiriq. Matnni lotin yozuviga o'girib ko'chiring, mazmunini gapirib bering.

Бутун коинот бир-бирига меҳр-муҳаббат риштаси билан боғлангандир.
Меҳр улашишни ўрган!

У муҳаббатнинг барчасига қалбингда жой борлигини, кўнглинг англаб етсин!

Муҳаббатсиз инсондан дунё кўркади, буни унутма!

✍ Мавлоно Румий.



5-topshiriq. “Noto'g'ri jadval” usuli orqali quyida berilgan matn turlari va ularga oid misollarni to'g'ri moslashtiring.

NOTO'G'RI JADVAL		
T/r	Matnning mohiyatiga ko'ra	Misollar

	turlari	
1	Ilmiy matn	Kapalakday kelib, qoshingga qo‘nib, Ko‘zingga termulib umrim o‘tsaydi.
2	Rasmiy matn	Bir narsani surishtirib, tagiga yetmoqchi bo‘lsak, asldan kelamiz: asli nima edi? Asli qanday edi? va hokazo.
3	Ommabop matn	Tovush to‘lqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog‘liq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi.
4	Badiiy matn	Men, Toshkent shahar 2-Qorasuv dahasi 214-uy 5- xonadonda yashovchi Ahad Ismoilovich Bahodirov, yon qo‘shnim Naim Abdullayevich Qahhorovga shaharning 7-aloqa bo‘limidan mening nomimga kelgan pochta jo‘natmasini olish uchun ishonch bildiraman.



6-topshiriq. “Mozaika” usulidan foydalanib, quyida berilgan matnning qismlarini tartiblang va bu matn qaysi uslubga xosligini aniqlang.



SUHBAT UCHUN MAVZU

Sog‘lom muhit deganda nimani tushunasiz?

UYGA VAZIFA UCHUN TOPSHIRIQLAR



O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari

Maksimal ball	Nazorat qilinadigan va baholanadigan ish turlari	Baholashda e'tibor qaratiladigan jihatlar
5	Mavzu bo'yicha nazariy tayyorgarlik darajasi va darsdagi faollik	Asosiy tushunchalar, ta'riflar, mohiyatini tushunish, ijodiy fikrlay olish, bilimlarni amalda qo'llay olish
5	Uyga berilgan topshiriqlarni bajarish sifati	Topshiriqlarni to'g'ri va to'liq bajarish, masalalarni hal qilishga ijodiy yondashish, tushuntirib bera olish
5	Nazorat ishlarini bajarish sifati	Topshiriqlarni to'g'ri va to'liq bajarish, ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, yechimni asoslay olish
5	Mustaqil topshiriqlarni bajarilish sifati	Berilgan topshiriqni to'g'ri va to'liq bajarish, mustaqil mulohaza yurita olish, bilimlarni amalda qo'llay olish, masalaga ijodiy

	yondashish, mohiyatini tushunish va aytib bera olish
--	--

